

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA QOZOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ
TIZIMLARI O'RTASIDAGI FARQLAR

Saidazimova Sevinch Bunyod qizi

Alfraganus Universiteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston va Qozog'iston soliq tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlarni tahlil qiladi. Har ikkala mamlakatning soliq tizimi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Maqola soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq tizimidagi farqlarini muhokama qiladi.

Kalit so'lар: O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq tizimidagi farqlar, QQS stavkasi, iqtisodiy rivojlanishda soliq tizimining ta'siri.

Аннотация: В данной статье анализируются основные различия между налоговыми системами Узбекистана и Казахстана. Налоговая система обеих стран имеет свои особенности и мало влияет на экономическое развитие. В статье рассматриваются виды налогов, налоговые льготы различия налоговой системы.

Annotation: This article analyzes the main differences between the tax systems of Uzbekistan and Kazakhstan. The tax system of both countries has its own characteristics and has little impact on economic development. The article examines types of taxes, tax benefits, and differences in the tax system.

Soliq tizimi har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. U davlatning moliyaviy manbalarini shakillantirish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy ro'l o'yнaydi. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi, Markaziy Osiyoda joylashgan ikki qo'shni mamlakat, har biri o'zining soliq tizimiga ega. Ushbu maqolada ikkita mamlakatning soliq tizimlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilami, bu esa o'znavbatida iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Maqolada qiyosiy tahlil usuli qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining soliq tizimlari haqida mavjud bo'lgan ilmiy va amaliy adabiyotlar, davlat statistikasi o'rganiladi. Soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq tizimidagi farqlar, QQS stavkasi va iqtisodiy rivojlanishda soliq tizimining ta'siri haqidagi ma'lumotlar to'planadi va taqqoslanadi.

Soliq turlari

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Soliq turlari

O'zbekiston Respublikasi

Qozog'iston Respublikasi

1. Qo'shilgan qiymat solig'i
2. Aksiz solig'i
3. Foya solig'i
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
5. Yer qa'raidan foydalanganlik uchun soliq
6. Suv resurslaridan foydalanganlik

1. Qo'shilgan qiymat solig'i
2. Aksiz solig'i
3. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
5. Eksportdan olinadigan renta solig'i
6. Yer qaridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlar va soliqlar

Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi soliq turlaridagi farqlarni ko'rishimiz mumkin.

Soliq imtiyozlari

Qozog'iston Respublikasida investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida ko'plab soliq imtiyozlari mavjud. O'zbekiston Respublikasida ham bunday imtiyozlar mavjud, lekin ular ko'proq davlat dasturlari bilan bog'liq. Soliq imtiyozlari soliq to'lovchilariga qarab imtiyozlar tabaqlashtiriladi, muayyan ijtimoiy iqtisodiy maqsadni ko'zlaydi. Soliq imtiyozlari davlat qo'lida bozor iqtisodiyotini tartibga solishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan soliq to'lovchilariga beriladigan imkoniyatlar yengilliklari: soliqlar miqdorini kamaytirish, soliq to'lash shartini yengillashtirish yoki soliqli ozod qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida soliqlar 13tadan 9taga qisqartirildi bu aholiga yaratilayotgan qulayliklardan bir, shu jumladan tadbirdorlar tomonidan ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'inining qaytarilishi tartibi joriy etilmoqda bu imkoniyatdan

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

foydalanib kichik beznnesini yanada rivojlantirishi va Jahon miqiyosiga chiqishi uchun yana bir qulaylik.

Soliq tizimidagi farqlar

O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi misolida. O'zbekiston respublikasida bugungi kunda jismoniy shaxslarga solinadigan daromd solig'i 4ta shakli mavjud 1)eng kam oylik ish haqi 149,750 so'mgacha 0% daromad solig'i o'rnatilgan. 2) 1minimaldan ya'niy eng ka mish haqi 5minimaligacha 149,750 so'mdan 748,750 so'mgacha 7,5% bundan 6,5% davlat byudjetiga, 1%i jamg'arib beriladigan pensiya hisob raqamiga tushadi. 3) 5minimaldan 10 minimaligacha 748,751dan 1mln 497,500 so'm 16% daromad solig'I to'lanadi. Qoog'iston Respublikasida jismoniy shaxslar uchun 10% ba'zi hollarda 20%, yagona daromad solig'i stavkasi shaxsiy daromadlarning ko'p turlari uchun qo'llaniladi, 5% stavka faqat Qoog'istonda olingan dividendlar uchun amal qiladi.

QQS stavkasi

SOLIQ TURLARI				
No	O'zbekiston Respublikasi	Soliq staf lisi	Qozog'iston Respublikasi	Soliq staf lisi
1	Qushilgan Qiymat solig'i	15%	Qushilgan Qiymat solig'i	12%
0	Aksiz solig'i		Aksiz solig'i	
3	Foya solig'i	15%	Yuridik shaxslardan olinadigan daromat solig'i	20%
4	Jismoniy shaxslarda olinadigan daromat solig'i	12%	Jismoniy shaxslarda olinadigan daromat solig'i	5%, 10%, 20%
5	Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	12%	Eksportdan olinadigan renta solig'i	0%
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12%-30%	Suv resurslaridan foydalanganlik maxsus tulovlar va soliqlar	0,50%
7	Mol-mulk solig'i	12%	Ijt moi soliq	9,50%
8	Yer solig'i	0.95%	Trasport vositalari uchun soliq	
9	Ijt moi soliq	12%-25%	Yer solig'i	0,10%
10			Mulk solig'i	0.05%, 0.1%, 0.5%
11			Qimor beznnesiga soliq	25%

Qozog'iston Respublikasida hozirgi kunda QQS solig'i stavkasi 12%, ushbu soliq to'lovlar, ishlar va xizmatlarni sotish tannarxiga, shuningdek importga nisbatan qo'llaniladi. Tovarlar eksporti va xalqaro transport xizmatlari % stavkada soliqqa to'lanadi.O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda QQS solig'I 12% ekanligini bilishimiz mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishda soliq tizimining ta'siri. Ikkala mamlakatda ham soliq tizimlari iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'siri qiladi. O'zbekiston Respublikasi o'zining iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda.Bundan soliq islohotlari va soliq tizimining takomillashuvi muhim ahamiyatga ega. Qozog'iston esa, neft va gaz resurslaridan kelib chiqib, iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tizimini samarali ishlatishtga harakat qilmoqda. Ularning barchasi davlatlararo iqtisodiy aloqalar va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, o'zaro tajriba almashinushi ham strategik hamkorlikni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga, soliq tizimining samaradorligi va barqarorligi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinalarini yaratish va fuqarolarning ijtimoi faravonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ikki mamlakat, o'z iqtisodiy modelini ishlab chiqishda soliq tizimidan samarali foydalanish, shuningdek xalqaro tajribani o'rganish va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etishda davom etmoqda.

Biz bu jadvalda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston respublikasidagi soliq stavkasi farqlarini ko'rishimiz mumkin. Bu jadvalda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasidagi aksiz solig'i stavkasi bo'sh turibdi sababi aksiz solig'i har ikkala davlatdaham maxsulot turiga qarab soliq stavkasi belgilanadi, shu jumladan Qozog'iston Respublikasidagi transport vositalari uchun soliqham transport turlariga qarab soliq stavkasi belgilanadi. Qozog'iston Respublikasida qimor biznesi uchun soliq turi mavjudligini ko'rishimiz mumkin bu soliq turi qimor biznesi O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan, bu O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi soliq turidagi bir farq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi foya solig'i 15% ni tashkil etsa Qozog'iston Respublikasi yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i 20%ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 12% Qozog'iston Respublikasida eksportdan olinadigan renta solig'i 0%ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12%ni, Qozog'iston Respublikasida olinadigan daromadga qarab 5%, 10%, 20%ni tashkil etadi. Qozog'iston Respublikasida suv resurslaridan foydalanganlik maxsus to'lovlar va soliqlar 0,50%ni, O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 12%dan 30%gacha. O'zbekiston Respublikasida mol-mulk solig'i 12%ni, Qozog'iston Respublikasida mulk solig'i 0,05%, 0,1%, 0,5%ni tashkil etadi. Qozog'iston Respublikasida yer solig'i 0,1%ni, O'zbekiston Respublikasida yer solig'i: qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'i 0,95%ni tashkil qiladi. Qozog'iston Respublikasida ijtimoiy soliq 9,50%ni, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soliq 12%-25%ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi soliq tizimlari o'rtasidagi farqlar iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy ta'minot sohalarida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda biz soliq tizimidagi muammolarni o'rganib turib yechim bo'yicha taklif va xulosalarni shaklantirishimiz kerak. Soliq tizimini o'rganib chiqib byudjetga va iqtisodiyotni rivojlanishiga manfaatli bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqishimiz zarur soliqni takomillashtirish iqtisodiyotni o'sib rivojlanishiga olib keladi va yanada xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi.

LEX.UZ , Учет.kz

2. World Bank. (2020). Uzbekistan: A Review of the Tax System.